# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**
"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ... 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant
Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ... 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent
Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ... 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ... 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi
Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ... 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ... 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant
Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ... 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ... 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ... 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ... 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ... 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ... 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ... 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**
Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ... 73
**Usmonov Botir,** magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ... 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ... 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ... 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ... 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ... 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi
Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ... 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi
Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ... 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ... 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qoʻllab-quvvatlash masalalari ......... 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD
Mulk iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda muammo va yechimlar ......... 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta oʻqituvchi
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ......... 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ......... 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ......... 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ......... 146
**Joʻrayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ......... 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ......... 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ......... 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Barqaror iqtisodiy oʻsishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining taʼsiri ......... 170
**Nabiyev Ulugʻbek Mirodiljon oʻgʻli,** tayanch doktorant
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ......... 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ......... 181
**Raximova Kizlarxon Neʼmatjon qizi**
Jamgʻarmalar investitsiyalar manbasi sifatida ......... 185
**Sadikova Raʼno Abdullayevna,** i. f. n., dots.
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy oʻsishga erishish ......... 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning oʻrni ......... 191
**Sherjonov Sherjon Alijan oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Xoʻjalik yurituvchi subyektlar toʻlov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ......... 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher oʻgʻli,** dekan oʻrinbosari
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ......... 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning oʻrni ......... 206
**Aliyev Maʼruf Komiljon oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchisi
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ......... 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса
Korxonalar moliyaviy barqarorligini taʼminlash mexanizmini takomillashtirish ......... 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga taʼsiri va uni takomillashtirish ......... 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor
Oʻzbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ......... 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra oʻqituvchisi
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ......... 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko‘rsatkichlari ... 242
**Berdiyev Akram O‘ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma’muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo‘llari ... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o‘g‘li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .......... 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития .......... 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике .......... 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .......... 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari .......... 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari .......... 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .......... 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .......... 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari .......... 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство .......... 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .......... 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .......... 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .......... 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik .......... 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari .......... 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .......... 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .......... 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari .......... 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti .......... 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish .......... 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

# KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH



**Z. G. Allaberganov**
Toshkent moliya instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy tanazzul holatlari va dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarga uchrayotgan bir davrda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan sanalmoqda. Korxonalar milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lganligi bois ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash mamlakatni barqaror rivojlantirish uchun asosiy omillardan sanaladi. Korxona qiymatini oshirishning eng muhim omillaridan biri korxonaning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish orqali uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdir. Moliyaviy barqarorlikni baholashda korxonalarning xususiyati inobatga olinadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonalarning moliyaviy barqarorligini to'liq baholashda bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, uni baholash ko'rsatkichlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, moliyaviy barqarorlik, modernizatsiya, sanoat, baholash, moliyaviy ko'rsatkichlar, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, o'z-o'zini moliyalashtirish.

Abstract: One of the important tasks in the global economy is to ensure the financial stability of enterprises operating in the country during an economic downturn. Since enterprises are an important component of the national economy, ensuring their sustainable development is one of the main factors for the sustainable development of the country. One of the most important factors in increasing the value of an enterprise is ensuring the financial stability of the enterprise through the effective use of its financial resources. When assessing financial stability, the characteristics of enterprises are taken into account. This, in turn, creates a number of difficulties in fully assessing the financial stability of enterprises. The article examines the scientific, theoretical and practical aspects of ensuring the sustainability of enterprises, and indicators for its assessment. Proposals were also developed to ensure the financial sustainability of enterprises.

Key words: enterprise, financial stability, modernization, industry, assessment, financial indicators, absolute and relative indicators, self-financing.

Аннотация: Обеспечение финансовой устойчивости предприятий, работающих в стране, считается одной из важных задач в период экономического спада в мировой экономике и структурных изменений в мировой экономике. Поскольку предприятия являются важной составляющей национальной экономики, обеспечение их устойчивого развития является одним из основных факторов устойчивого развития страны. Одним из важнейших факторов повышения стоимости предприятия является обеспечение его финансовой устойчивости за счет эффективного использования финансовых ресурсов предприятия. Характеристики предприятий учитываются при оценке финансовой устойчивости. Это, в свою очередь, создает ряд трудностей в полной оценке финансовой устойчивости предприятий. В статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты обеспечения финансовой устойчивости предприятий и показатели ее оценки. Также были разработаны предложения по обеспечению финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: предприятие, финансовая устойчивость, модернизация, промышленность, оценка, финансовые показатели, абсолютные и относительные показатели, самофинансирование.

## KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda real sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarga qator iqtisodiy, moliyaviy imtiyoz va qulayliklar berilmoqda. Natijada, ushbu korxonalarning eksportdagi mavqe'i imkon darajasida saqlanib qolishiga muvaffaq bo'linib, moliyaviy barqarorligi ta'minlanishiga qulay shart-sharoit yaratilmoqda. Darxaqiqat, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va uning o'sish sur'ati real sektor korxonalari barqarorligiga, shu jumladan, moliyaviy barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xususan, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash va diversi-

fikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada, sanoat tarmoqlarining nafaqat barqaror faoliyat yuritishiga, balki ularning yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 97,9 ming tani (2021-yilda 90,3 ming ta) tashkil etdi. Ushbu korxonalarda 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 551,1 trln so'mni yoki o'sish sur'ati 5,2 foizni tashkil etdi. Shundan, 197,2 trln so'mlik hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 111,7 foizga ta'minlandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 22-maqsadida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" [2] vazifasi belgilangan. Mazkur maqsad ijrosini amalga oshirishda sanoat korxonalarining uzluksiz moliyaviy barqaror-ligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda korxonalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ichki va tashqi omillaridan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolarni yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi.

## MATERIAL VA METOD

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha katta hajmdagi turli yondashuvlar mavjud. mahalliy va xorij iqtisodchi olimlari tomonidan o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunda ko'pchilik tomondan uni hisoblashda turli matematik tengliklardan iborat bo'lgan koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Mualliflar fikricha, koeffitsiyentlar aynan o'rganilayotgan korxona moliyaviy barqarorligini tahlilini amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi.

Masalan, MDH iqtisodchi olimi N. P. Lyubushin korxona moliyaviy barqarorligini baholashning quyidagi metodikasini taklif qiladi [3]:

- korxona aktivlarini shakllantirish manbalari va kapital tarkibini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalangan holda tahlil qilishning an'naviy yondashuvi;
- ishlab chiqarish omillaridan hisoblangan korxona resurslaridan foydalanish sifatiga e'tibor qaratiladigan resurs yondashuvi;
- korxona faoliyati doirasida resurslardan samarali foydalanishni hisobga olish zarurligini aks ettiruvchi va boshqaruv sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan resurslarni boshqarish yondashuvi;

Yana bir xorijlik iqtisodchi olimlari Y. A. Dolgix va Y. E. Slepuxinlar moliyaviy barqarorlik tahlili metodikasida ham bir qator ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko'rsatib o'tadi. Bunday yondashuvga ko'ra, korxona moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar mutloq, nisbiy va uyg'unlashgan jihatlariga bo'linadi [4]. Yuqorida zikr etilgan korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashning bunday usullari real amaliy hayotda ko'p qo'llaniladi. Biroq, shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, mavjud usullar nihoyatda kamdan-kam holatlarda tashqi muhitning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir darajasini hisobga oladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan B. Hakimov va boshqalar tomonidan "Moliyaviy barqarorlik bu korxonalarning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi" deb ifodalaydi. Iqtisodiyotdagi subyektlar moliyaviy barqarorligi deganda ularning zaxiralar bilan ta'minlanganligi va xarajatlarni ta'minlashning shakllantirilganligi tushuniladi. Korxona moliyaviy barqarorligining eng asosiy xususiyati korxona mablag'larini shakllantirish orqali o'z-o'zini moliyalashtirish evaziga taraqqiyotga erishish imkoniyati hisoblanadi [5].

## NATIJALAR

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy jarayon tahlili quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy iqtisodiy xarajatlar va zaxiralarni shakllantirish manbalarining ta'minlanganligi;
- korxona moliyaviy manbalarining tarkibi va tuzilmasi hamda ularni joylashtirish usullari;
- korxona o'z mablag'larining sifati va barqarorligi;
- korxona zaxirasining moliyaviy mustahkamligi;
- moliyaviy barqarorlik nisbiy ko'rsatkichlari;
- korxona iqtisodiy salohiyatidan foydalanish;
- korxonaning to'lov qobiliyati [6].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, aynan o'rganilayotgan mavzusi doirasida ya'ni moliyaviy barqarorlikni tahlili juda ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda o'rganilgan. MDH iqtisodchi olimlaridan N. L. Donsova, G. V. Savisskaya, V. P. Zotov, M. I. Bakanov, A. D. Lyubushin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlik tahlili masalalari atroflicha o'rganilgan. Masalan, G. V. Savisskaya moliyaviy barqarorlik – bu xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanish imkoniyati, tashqi va ichki muhit ta'sirida o'zgarib borayotgan o'z aktiv va passivlarining muvozanatligini saqlashi hamda ma'lum bir xavf chegara darajasida investitsion jozibadorlik va to'lovga qobiliyatlilikni kafolatlashidir. V. P. Zotov moliyaviy barqarorlik mazmuni bo'yicha ancha aniq yondashadi, uning fikricha ishlab chiqarish salohiyati holati va yetarli darajada moliyaviy barqarorlik ta'minlanganligi hamda o'z mablag'lari hisobidan nazoratni o'rnatilganligi va mustaqil baholashni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini baholashdir, deb ko'rsatadi.

N. P. Lyubushin moliyaviy barqarorlikka o‘z mustaqil ta’rifini beradi. Uning yondashuvi bo‘yicha moliyaviy barqarorlik mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimini ifodalaydi.

Materiallar aylanmasi narxining nisbati mablag‘lar (zahiralar va xarajatlar) va ularning o‘z va qarz manbalari qiymati shakllanishi moliyaviy barqarorlikni belgilaydi. Moliyaviy barqarorlik va uni amalga oshirishning turli tahlil usullarini taklif qilishadi [7].




1-rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning klassik usuli [8]

Analitik axborotlarning mavjudlik darajasiga qarab tahlil qilishdan oldin korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning maqsadiga ko‘ra chuqur o‘rganishni taqozo etadi. 1-rasmda keltirilgan korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning klassik usulidan tubdan farq qilgan holda korxona moliyaviy barqarorligini xarakterlab beruvchi koeffitsiyentlar va bir birini taqozo qiluvchi ko‘rsatkichlar guruhidan iborat bo‘lishi kerak [9].

Koeffitsiyentlarning o‘ziga kelsak, u holda afsuski, zamonaviy fanda quyidagi tendensiya mavjud: bir va o‘ndan ortiq ko‘rsatkichlar hamda ularni hisoblash usullari turli xil nomlar bilan talqin qilingan.




2-rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning neoklassik chizmasi [10]

Ko‘pgina mualliflar bir qator me’yoriy qiymatlarni taklif qiladi ko‘pgina ko‘rsatkichlar barcha sohalar uchun bir xil, ammo aslida har bir sanoat ko‘rsatkichlarining maqbul qiymat qismlarining chegaralariga ega bo‘lishi kerak likvidlik, rentabellik, aylanma va h. k zamonaviy iqtisodiyotning voqeliklariga yordam beradi [11].

Umuman olganda sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan tarmoq yoki sohada amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlarining xususiyatiga, tashkil etilgan boshqaruv va uning tarkibiy tuzilmasiga bog‘liq. Shuning uchun mazkur nazariy qoidani e’tiborga olgan holda O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq turli tarmoq va soha xo‘jalik boshqaruv tuzilmalarini qayta tashqil etish orqali ular faoliyatini transformatsiya qilish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Natijada milliy iqtisodiyotni ustuvor sohalarini transformatsiyalash hamda soha va tarmoqlar tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari natijasida real sektorni katta talofatlarsiz o‘tish davridan olib chiqildi. Chunki, milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi bevosita transformatsiya jarayonlari va uning natijasiga bog‘liq bo‘ladi. Endilikda transformatsiyalash jarayonlarini tezlashuvi evaziga ishga tushirilayotgan kimyo sanoatidagi zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi quvvatlarning yo‘lga qo‘yilishi raqobatbardosh kimyo mahsulotlari salmog‘ining respublikamiz yalpi ichki mahsulotida ko‘payishiga, ayni chog‘da, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yuksak natijalar qo‘lga kiritilishiga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun kimyo sanoati korxonalarida transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobatbardoshligini ta’minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishiga aylangan O‘zbekistonda milliy sanoat korxonalarini davlat tomonidan iqtisodiy va tashkiliy rag‘batlantirish siyosatining maqsad va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, avvalo, u yoki bu tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish salohiyati va asosiy mahsulotning raqobatbardoshlik darajasi hamda korxonalarning innovatsion salohiyati bilan belgilanadi.

Ustuvor tarmoqlarni transformatsiya qilish jarayonlari va unga ta’sir etuvchi omillarning mazmuni, mohiyati, o‘zgarish xususiyatlari bevosita xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga, raqobatbardoshlik darajasiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxiga, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, sanoatning lokomotivi bo‘lgan sohalarida transformatsiya jarayonlarni boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy mohiyati, boshqaruvning samaradorligi, ishlab chiqarish faoliyatining natijadorligi, boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o‘z navbatida ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi, uning tarkibi, holatini baholash bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ilmiy jihatdan shakllantirish, uslubiy jihatdan ochib berish va iqtisodiy jihatdan asoslash maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoatning ulushi 2000-yilda 14,2 foizdan 2015-yilda 24,3 foizga yetdi. 2017–2019-yillarda esa iqtisodiyot tarmoqlarida sanoatning ulushi ortib bordi. Jumladan, 2017 yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 22,2 % tashqil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018 yilda 26,5 %, 2019 kelib esa, 30,0 % tashkil etdi. Olib borilgan islohotlar natijasida 2021-yil yakunlariga ko‘ra sanoat sohasida 451,6 trln. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 8,7 foizga o‘sgan. O‘sish sur’atlari asosan tog‘-kon sanoatida ko‘mir qazib olish 16,0 foizga, tabiiy gaz va neft qazib olish 8,5 foizga, metall rudalar qazib olish esa 13,4 foizga o‘sgan. Qayta ishlash sanoatida to‘qimachilik mahsulotlari 19,1 foizga, kiyim ishlab chiqarish 8,7 foizga, farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari 48,9 foizga, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar 38,2 foizga, metallurgiya 8,1 foizga hamda boshqa transport uskunalarni ishlab chiqarish hajmi esa 23,1 foizga oshishganini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm) [13].

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m

| Ko‘rsatkichlar | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m | 111869,4 | 148816,0 | 235340,7 | 322535,8 | 368740,2 | 456056,1 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 9031,5 | 15283,8 | 29087,9 | 43438,9 | 33106,9 | 43872,2 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 91483,0 | 120686,9 | 189642,6 | 254860,9 | 305928,6 | 378186,4 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 10522,6 | 11656,0 | 14518,5 | 22014,7 | 27375,3 | 30815,5 |
| Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 832,3 | 1189,3 | 2091,7 | 2221,2 | 2329,3 | 3182,0 |

Tahlillardan ko‘rinadiki, 2021-yilda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishi natijasida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) hajmida eng katta ulush xizmatlar sohasiga tegishli bo‘lib, bu ko‘rsatkich 38,6 foizga, eng past ko‘rsatkich qurilish ishlari sohasida bo‘lib, bu ko‘rsatkich 6,7 foizga to‘g‘ri kelgan. Sanoatning ulushi 2020-yildagi 27,5 foizdan 2021-yilda 27,8 foizga oshgan. Biroq, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligidagi ko‘rsatkich 27,1 foizdan 26,9 foizga qisqargan.




3-rasm: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlari, foizda [14]

Uning oʻziga xos yana muhim bir jihati iqtisodiyotning agrar sektori bilan oʻzaro uzviy aloqada ekanligi bilan asoslanadi, chunki u qishloq xoʻjaligi uchun juda muhim boʻlgan mineral oʻgʻitlar ishlab chiqaradi. Shuning uchun kimyo sanoatining rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida ustuvor umumdavlat vazifasidan biri sifatida qaralmoqda.

## MUNOZARA

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarisiz taʼssavur etib boʻlmaydi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda korxona iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash muhim ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Negaki, iqtisodiyotning xavfsizligi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga doir qarorlarni qabul qilish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday oʻzgarish turli xavf-xatar va tahdidlar namoyon boʻlishi bilan birgalikda kechadi. Iqtisodchi olimlarning turli tadqiqotlar oʻtkazish natijasida korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini turli koʻrsatkichlari va uning miqdorini shakllantirish uchun zaruriy mezonlari shakllantirilgan. Xavfsizlik muammolarining dolzarbligiga qaramay, korxonalarning iqtisodiy-moliyaviy xavfsizligi va uni baholash koʻrsatkichlari tizimi yetarlicha oʻrganilmaganligi hamda uning darajasini hozirgi zamon talablariga qanchalik darajada javob berish dolzarb masalalardan biri boʻlib kelmoqda. Taʼkidlash kerakki, mamlakatimizda bunday baholashning umumeʼtirof etilgan metodologiyasi mavjud emas. Ikkinchidan, korxona moliyaviy barqarorligiga albatta faoliyat olib borayotgan hududga, hududning shaffoflik darajasiga, salohiyatiga va u yerda yaratilgan shart sharoitlarga bevosita bogʻliq boʻladi. Shuningdek, hududdagi infratuzilmalarning rivojlanish darajasi va davlat tomonidan ajratilayotgan mablagʻlarga, investitsiyalarga bevosita bogʻliq boʻladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda korxonalar moliyaviy barqarorligini taʼminlashda iqtisodiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi va raqobat bozorining kuchayishi korxonalarga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda korxonaning moliyaviy holati, boshqaruv tamoyillari, mamlakatdagi iqtisodiy-siyosiy ahvol toʻgʻrisidagi axborotlar investorlarning diqqat eʼtiborida boʻlib, shu omillar asosida xorij investitsiyalari mamlakat iqtisodiyotiga jalb etiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni koʻrsatadiki, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni taʼminlashda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- korxonada innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishiga erishishda moliyaviy resurslarni jalb etish (byudjet va byudjetdan tashqari boʻlgan manbalar, venchur kapitali, tijorat banklari krediti hamda xalqaro kredit va texnik yordam hisobidan);
- innovatsion tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish evaziga davlatning eng muhim manfaatlarini taʼminlash, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sharoit yaratish;
- mamlakatda fan va fan sigʻimi yuqori boʻlgan ishlab chiqarish, intellektual faoliyatning boshqa turlari uchun kerak boʻlgan kadrlar tayyorlash jarayonini isloh qilish, iqtisodiyotni yangi texnika va texnologiya bilan taʼminlash, uni intensiv rivojlantirish uchun kerak boʻlgan kadrlar bilan taʼminlashning asosini yaratish;
- ishlab chiqarish bilan taʼlim tizimi integratsiyalashuvini taʼminlash;
- fan bilan shugʻullanuvchilar mehnati qadrini oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotlar bilan shugʻullanishga jalb etish, ilmiy xodim va mutaxassislarni ijtimoiy himoyalash uchun sharoit yaratish.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. https://imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post–1045 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish toʻgʻrisida maʼlumotlar.
2. https://lex. uz/docs/5841063 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son farmoni.
3. Любушин Н. П., Бабичева Н. Э., Галушкина И. А., Козлова Л. В. Анализ методов и моделей оценки финансовой устойчивости организаций // Экономический анализ: теория и практика – 2010 – № 1 (166) – С. 3–11.
4. Долгих Ю. А., Слепухин Ю. Э., Инновационный методический подход к оценке финансовой устойчивости предприятия // Инвестиционно-инновационная политика – 2018. – ноябрь-декабрь. – С. 33–40.
5. Бычкова С. М., Бадмаева Д. Г. Учетно-аналитические аспекты формирования и использования собственного капитала организации // Международный бухгалтерский учет. 2014. № 19. – С. 25–32.
6. Пашков Р., Юденков Ю. Альтернативы стратегии развития в кризис // Бухгалтерия и банки. 2015. № 12. С. 36 – 41.
7. Харитонов А. Л. Управленческие решения в финансовой сфере. – М.: Кноледж, 2015. – 255 с.
8. Muallif tomonidan oʻrganilgan manabalarga tayanilgan holda ishlab chiqildi.
9. Крашенинников Н. В. Стресс-тестирование финансовой устойчивости банка: методологические подходы // Управление в кредитной организации. 2013. № 4. – С. 27–37.
10. Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
11. Ряскова Н. Финансовые риски, их сущность и классификация // Российский бухгалтер. 2015. № 12. – С. 94–108.
12. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi maʼlumotlari.
13. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi maʼlumotlari.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.